

**IQTIDORLI BOLALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI**

Rahmatova F. G.

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

El.pochta: rfotima.349@gmail.com

Fayzullayeva Z. S.

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

El.pochta: zarinaf593@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada iqtidorli o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ularning kognitiv rivojlanishi, xulq-atvori va iqtidor shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro tajriba — tyutorlik, mentorlik, differensial ta’lim va maxsus o‘quv dasturlari — yoritib beriladi. O‘zbekistonda iqtidorni aniqlash va rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, normativ-huquqiy asoslar hamda samarali pedagogik mexanizmlar alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, iqtidorli o‘quvchilarni diagnostika qilish, ularga metodik yordam ko‘rsatish va ularni ijtimoiylashtirish bo‘yicha takliflar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** iqtidorli bolalar, qobiliyat, pedagogika, psixologiya, diagnostika, tyutorlik, mentorlik, rivojlanish, kognitiv jarayonlar, ta’lim.

**Аннотация**

В работе рассматриваются педагогико-психологические особенности одарённых детей, их когнитивное развитие, поведенческие характеристики и факторы формирования способностей. Анализируется международный опыт поддержки талантливых учащихся, включающий тьюторство, менторство, дифференциацию обучения и специализированные образовательные программы. Особое внимание уделяется современным подходам к выявлению и развитию одарённости в Узбекистане, нормативно-правовой базе и актуальным педагогическим механизмам работы с талантливыми детьми. Представлены рекомендации по совершенствованию образовательных условий, диагностике, сопровождению и социализации одарённых учащихся.

**Ключевые слова:** одарённые дети, способности, педагогика, психология, диагностика, тьюторство, менторство, развитие, когнитивные процессы, образование.

**Abstract**

This study examines the pedagogical and psychological characteristics of gifted children, focusing on their cognitive development, behavioral traits, and the factors influencing talent formation. It analyzes international practices in supporting gifted learners, including tutoring, mentoring, differentiated instruction, and specialized educational programs. Special attention is given to modern approaches in Uzbekistan for identifying and nurturing giftedness, relevant legislation, and effective pedagogical mechanisms. The work offers recommendations for improving educational conditions, diagnostic procedures, support systems, and the socialization of gifted students.

**Keywords:** gifted children, abilities, pedagogy, psychology, diagnostics, tutoring, mentoring, development, cognitive processes, education.

Jahon miqyosida innovatsion g'oya va texnologiyalarni jadal rivojlantirish ehtiyoji nostandart va kreativ fikrlashga qodir iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning iqtidorini aniqlash, maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish kabi masalalarni alohida tadqiq etishni talab etmoqda. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida AQSH, Germaniya, Angliya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda tyutorlik, mentorlik tizimi joriy etilib, "bending" (banding – tasmlarga ajratish), "striming" (streaming – potoklarga ajratish), "setting" (setting – soha, guruhlariga ajratish) kabi o'qitish shakllarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon va Respublikamizda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning rag'batlantiruvchi va pedagogik qo'llab-quvvatlashga doir tizimini takomillashtirish, chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'limni tashkil etishning didaktik ta'minotini ishlab chiqish, darsdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, o'qituvchilarni tyutorlik va mentorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish, iqtidorli o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning tashkiliy-pedagogik modellarini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 yildagi PQ-346-son "Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham bunga misol bo'la oladi.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularning ilm-fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash hamda jahon miqyosida Vatanimiz dovrug‘ini keng taratgan buyuk ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida bir qancha chora tadbirlar ishlab chiqilgan va amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

Iqtidorli o‘quvchilar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi;
- doimo turli savollarga javob izlashlari;
- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o‘qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o‘quv faoliyati;
- masalalarning echimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorligi.

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan umumiy va maxsus qobiliyat yosh davrlarini inobatga olgan holda muhim jihatlarga bog‘liq. Ilk yosh davrlari – maktabgacha va kichik maktab yoshida iqtidor umumiy hamda universal qobiliyat sifatida qaralishi va rivojlanishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu “umumiy qobiliyat” o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib ma’lum bir yo‘nalishni belgilaydi. Ayni vaqtda bu iqtidor bola tomonidan qay darajada namoyon bo‘layotganligiga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Aniq namoyon bo‘lgan, ya’ni psixolog, pedagog, ota-onalar tomonidan e’tibor berilgan qobiliyat “dolzarb”, atrofdagilar payqamaydigan qobiliyat “potensial” qobiliyat deyiladi. Ko‘pgina mashhur olimlar, bastakorlar, rassom va yozuvchilar (masalan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug‘bek, V.A.Motsart, F.Galton, I.Mechnikov, K.Gauss, N.Vinner, G.Leybnits, V.Gyugo) erta yoshdayoq o‘zlarining qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Va aksincha ko‘p hollarda bolalikda hech qanday iqtidorga ega bo‘lmagan bolalar yetuklik davrida muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Bu aqliy potensialga ko‘pincha atrofdagilar e’tibor bermasliklari mumkin.

Istedodning ilk ko‘rinishi bolaning yoshlik chog‘idanoq namoyon bo‘la boshlaydi. Bu bolada nutqning erta paydo bo‘lishi va juda ko‘p bo‘lgan lug‘at boyligidir. Ular tevarak atrofda sodir bo‘layotgan voqealikalarga qiziquvchan bo‘ladilar. Mutaxassislarning e’tirof etilishicha, istedodli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo‘lib, ularda uzoq muddatgacha bo‘lib o‘tgan voqea hodisalarni, ko‘rgan bilgan narsalarini eslab qolish va kerak paytda uni yana qayta xotirada tiklash imkoniyatlari kengdir.

Iqtidor yoki istedod asosan o‘zaro bog‘liq parametrlar bilan aniqlanadi. Bilimlar darajasining rivojlanishidagi ustunlik, psixologik rivojlanish va fiziologik sifatlar.

**Bilish jarayonlari:** bir vaqtning o‘zida bir necha ish bilan mashg‘ul bo‘lish, qiziquvchanlik darajasining kengligi, kuchli xotira va diqqatni bir joyga to‘play olish imkoniyatining mavjudligi.

**Psixologik rivojlanish:** hayolning o‘ta rivojlanganligi, hissiyotlarda realikka moyilikning kuchliligi, hazil hissining mavjudligi, har qanday topshiriqlarni yechishga harakat qilishlik, ba’zida qo‘rquv holatini oshirib yuborishlik hamda egosentrizmning kuchliligi .

Har bir inson faoliyati 7 yo‘nalishning biri bo‘yicha qobiliyat yoki qiziqishga ega. Bolalarning qiziqish qobiliyati va iqtidor yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha olim A.D.Jann va G.Kaff tomonidan ishlab chiqilgan mintaqamiz bolalari uchun moslashtirilgan . Test anketa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, savollarga ota onalar javob beradilar. Psixolog yoki o‘qituvchi tomonidan savollar o‘qiladi va bolaning qiziqishi, qobiliyat va iqtidorining namoyonlik darajasi 2-5 ball sistemasida belgilanadi. Agar savollarda berilgan xususiyatlar bolaga juda mos kelsa „++“ belgisi va 5 ball: namoyonligi yaxshi bo‘lsa „+“ belgisi va 4 ball ; o‘rta bo‘lsa „--“ belgisi va 3 ball : unchalik namoyon bo‘lmasa „-“ belgisi va 2 ball qo‘yiladi, ko‘rsatkichlar 2 balldan past bo‘lmasligi kerak.

Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashdi quyidagilarga etibor berish lozim

1.Iqtidorli bolalarni baholashda qobiliyatlari qay darajada ekanligi, ayniqsa, qaysi qobiliyatlar yuqoriligini kompleks ravishda amalga oshirish lozim.

2.Iqtidorli bolalarni aniqlash uzoq davom etadigan jarayondir, shunda olingan natijalar obyektiv bo‘ladi.

3.Iqtidorni aniqlashda psixotrening mashg‘ulotlari bolani tekshirishdan oldin undagi stress xolatini yo‘qotish bolani ruhiy tayyorlash samarali natija beradi .

4.Iqtidorli bolalarning imkoniyat darajasini aniqlashda suniilik bilan cheklanib qolmay, suniyydan olingan natijani real hayotda qo‘llash kerak.

5.Iqtidorli bolalarni aniqlashda turli mutaxassislar psixologik, pedagog, fiziolog, ota ona, tengdoshlarining bergan bahosi alohida ahamiyatga ega.

6.Boladagi iqtidorni aniqlashda bolaning o‘ziga bergan bahosi ham alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga umumta’lim maktab o‘quvchilarini keyingi talim turiga yo‘naltirishda o‘quvchilarni mutaxassislik yo‘nalishlariga iqtidorlilik, qobiliyatlilik tamoyillariga asoslanishlari ham lozim bo‘ladi.

Psixolog mutaxasislari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari hozirgi kunda 6-16 yosh davridagi bolalarning o‘rtacha 3-5 foizi yuqori darajadagi aqliy koeffitsiyent(IQ) ga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Iqtidorli bolalarga alohida yondashilmasa, oxir-oqibat oʻrta maktab talabiga javob beradigan boʻlib qoladi. Natijada uning mustaqil fikrlashi, bilimga chanqoqligi va real imkoniyatlari eʼtibordan chetda, talabsiz qoladi.

Odatda, iqtidorli bolalardan boshqa bolalarga nisbatan koʻproq talab qilinadi. Bunday bolalarda shu davrda tengdoshlari bilan qiyinchiliklar tugʻilishi, boshlangʻich maktabni tugatayotganda boshqa bolalar ularni oʻzlaridan uzoqlashtirib, hatto xafa qiladigan laqablar ham qoʻyishadi, bunday vaziyatda iqtidorli bolalar jamoadan ajralib qolmaslik uchun ulardan ortiqroq bilishi va harakatchanligini koʻrsatmaydi.

Oʻrta taʼlim maktabida oʻqishga halaqit qiladigan iqtidorli bolalarni asosiy koʻrsatgichlaridan biri ular uchun berilgan oddiy vazifalarni bajarmasligi va oʻqishga qiziqish yoʻqligidir. Bunday bolalar oʻzlari bemalol oʻzlashtiradigan mashgʻulotlarni kimdir boshqarishini xohlamaydilar, hatto boshqarilsa xafa ham boʻladilar.

Iqtidorli bolalarni oʻqitishni birgina yoʻli iqtidorli sinflar yoki maktablarni tashkil qilinishidadir. SHundagina iqtidorli bolalar maktabni tezroq tamomlab, tezroq oʻzlari xohlagan oliygohlariga kirishlari mumkin. Bu ularga oldilariga qoʻygan maqsadlariga tezroq erishishlariga sabab boʻladi. Iqtidorli bolalar oʻz oldilariga qoʻygan maqsadlarga erishishi, Vatanimiz kelajagi va ravnaqi uchun salmoqli hissa boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasi kattalarni tarbiya muammolariga eʼtiboriga emas, balki bolalarga berayotgan eʼtiboriga bogʻliqdir. Har bir iqtidorli bolaga alohida eʼtibor berilishi chuqurlashtirilgan va tezlashtirilgan taʼlim berilmogʻi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.01.05.2023. lex.uz.
2. Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi OʻRQ-637-son. “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni. lex.uz.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. “2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoni. lex.uz.
4. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. –T.: Oʻzbekiston, 2017.
5. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: Oʻzbekiston, 2017.
6. Rahmatova Fotima Gʻaniyevna. Iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlash texnologiyasini takomillashtirish haqida monografiya. Samarqand –Tibbiyot koʻzgusi, 2021/2/24.
7. Gʻoziev E. Umumiy psixologiya. – T.: Universitet, 2002. – B.32.
8. Xeller K.A., Perlet K., Iqtidorli bolalar. – M., 1991.
9. Теплов Б.М. Способность и одаренность// Избранные труды: В 2 т. – М., 1985. Т.